# PUDRAT SHARTNOMASI

14«12»2022 yil. **942-10-133-OB/2022-son**

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Oqqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi X.Jumanazarov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan Usta Aliqul yo'l qurilish MChJ nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi **G.Xudaykulova** ikkinchi tomonidan Yoshlik MFY K.Begzod ko'chasini joriy tamirlash ishlarini bajarishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

## I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar кo'llaniladi:

**ijro xujjatlari** - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiкligi to'ғrisidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt кurilishi (ta'mirlanishi)ga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda кo'llanilgan materiallar, konstrukstiyalar va detallarning sifatini tasdiкlovchi boshкa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiкlanganligi to'ғrisidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstrukstiyalar oraliк davrda кabul кilinishi to'ғrisidagi dalolatnomalar, montaj кilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'ғrisidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda кurilish normalari va кoidalarida nazarda tutilgan boshкa xujjatlar;

**кurilish (ta'mirlash) maydoni** - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob'ektning кurilish (ta'mirlash) maydoni chegarasi ajratib кo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiк belgilanadigan boshкa belgilar bilan belgilab кo'yiladi;

**vaкtinchalik inshootlar** - Pudratchi tomonidan кurilish (ta'mirlash) maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar кanday tipdagi vaкtinchalik binolar va inshootlar;

**berkitiladigan ishlar** - sifati va aniкligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniкlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstrukstiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

**shartnoma narxini bo'lib chiкish** - ishlarning xar bir bosкichi va/yoki turlari кiymatini aniк belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy кiymatini bosкichlarga taкsimlash.

## II. ShARTNOMA MAVZUSI

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga Yoshlik MFY K.Begzod ko'chasini joriy tamirlash ishlarini bajarishga smeta loyixada ko'zda tutilgan ob'ektni foydalanishga tayyor xolda topshirish bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga кurilish ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni кabul кilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## III. ShARTNOMA BO'YIChA IShLAR КIYMATI

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan tasdiкlangan ishlar кiymati barcha soliкlar, yirimlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda **70 000 000.00** (Etmish million) sumni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiкilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

qurilish (ta'mirlash) qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;

ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

ob'ektning qurilishi (ta'mirlanishi) bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Кurilish muddati bir yildan ortiк bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniкlashtirish кonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga кo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

## IV. PUDRATChINING MAJBURIYaTLARI

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofiк bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb кilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiк topshirish;

кurilish (ta'mirlash) maydoniga zarur кurilish materiallari, buyumlar, konstrukstiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, кurilish texnikasini etkazib berish, ularni кabul кilish, tushirish, omborga joylash va saкlash;

кurilish (ta'mirlash) maydoni xududida vaкtinchalik inshootlar кurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'ғrisida xabardor кilish;

Scanned with CamScanner

ĸurilish (ta'mirlash) maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaĸtida atrof muҳitni, o'tĸazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muҳofaza ĸilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroĸlari o'rnatish;

ĸurilish (ta'mirlash) tavakkalchiliklarini sugurta ĸilish;

mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga ĸabul ĸilib olish to'ғrisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda ĸurilish (ta'mirlash) maydonini o'ziga tegishli ĸurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, ĸurilish materiallari, buyumlar, konstrukstiyalar ҳamda vaĸtinchalik binolardan bo'shatish;

ĸurilish (ta'mirlash) maydoni ĸo'riĸlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liĸ ҳajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi ҳamda ob'ektning foydalanishga tayyor ҳolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liĸ mulkiy javob beradi.

## V. BUYuRTMAChINING MAJBURIYaTLARI

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiĸ ishlarni bajarish uchun yaroĸli bo'lgan ĸurilish (ta'mirlash) maydonini ob'ekt ĸurilishi (ta'mirlanishi) va ĸurilish (ta'mirlash) tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-ĸurilish nazoratini va mazkur shartnomada ĸayd etilgan Pudratchi tomonidan ĸabul ĸilingan majburiyatlar va boshĸa funkstiyalarga rioya etilishini nazorat ĸilish. Pudratchidan tugallangan ishlarni ĸabul ĸilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiĸish va ĸaror ĸabul ĸilish;

moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liĸ ҳajmda bajarish majburiyatini oladi.

## VI. IShLARNI BAJARISh MUDDATLARI

10. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova ĸilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiĸ birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

11. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniĸlangan ĸurilish (ta'mirlash)ning davom etish vaĸti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 30 kunni tashkil etadi.

12. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar ishlarni bajarish jadvaliga muvofiĸ amalga oshiriladi.

## VII. TO'LOVLAR VA ҲISOB-KITOBLAR

13. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy ĸiymatining 30 foizi miĸdorida, avans o'tkazadi, bu **21 000 000** so'm 00 tiyinni tashkil etadi.

14. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos ҳisoblanadi

mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar ĸiymatining 5 foizigacha miĸdorida, biroĸ moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi.

15. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga ĸadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk ҳuĸuĸini o'zida saĸlab ĸoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga ĸadar ob'ektning tasodifiy yo'ĸ ĸilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

16. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga ĸabul ĸilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taĸdirda, Pudratchi bu ҳaĸda ĸonun ҳujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor ĸilgan ҳolda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor ĸilish ҳuĸuĸiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun ҳaĸ to'lashdan ozod ĸilinmaydi.

## VIII. IShLARNI BAJARISh

17. Buyurtmachi ĸurilish (ta'mirlash) maydonida o'z vakilini - texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarning shartnoma shartlariga va ish ҳujjatlariga muvofiĸligini tekshiradi.

18. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siĸsiz tanishish ҳuĸuĸiga egadir.

19. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan ĸurilish (ta'mirlash) maydonida ishlarni amalga oshirish choғida paydo bo'luvchi masalalarni ҳal ĸilish bo'yicha yiғilishlarda muntazam ravishda ĸatnashadi.

20. Pudratchi ishlarni bajarish loyiҳasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiĸlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaĸil ravishda tashkil etadi.

21. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-ĸurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun ĸonun ҳujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Scanned with CamScanner

22. Кurilish (ta'mirlash) maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi xisoblanadi.

23. Buyurtmachi кurilish (ta'mirlash) maydonini berish to'ғrisidagi dalolatnoma bilan bir vaкtda Pudratchiga ortiкcha tuproк va кurilish (ta'mirlash) axlatini joylashtirish va etishmayotgan tuproкni кazib olish uchun joy ajratish to'ғrisidagi xujjatlarni beradi.

24. Buyurtmachi кurilish (ta'mirlash) maydonini berish to'ғrisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda кurilish (ta'mirlash) maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka кilish uchun Pudratchiga geodeziya nuкtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taкdim etadi.

25. Pudratchi geodeziya nuкtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'ғri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'кlarining muvofiкligi to'ғri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniкlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan xolda tegishli tuzatishlarni o'z xisobidan kiritadi.

26. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saкlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

27. Кurilish (ta'mirlash) maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikastiyalarni vaкtincha ulashni va ulash nuкtalarida yangidan кurilgan kommunikastiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

28. Pudratchi o'zi tomonidan кurilish (ta'mirlash)da кo'llaniladigan кurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstrukstiyalar va tizimlar sifati loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan spestifikastiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiк bo'lishini xamda ularning sifatini tasdiкlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshкa xujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

29. Aloxida mas'uliyatli konstrukstiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga кarab ularni кabul кilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Davarxitektкurilishnazorat" inspekstiyasini yozma ravishda xabardor кiladi.

30. Кabul кilinadigan konstrukstiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstrukstiyalarni oraliк кabul кilish dalolatnomalari xamda ularning "Davarxitektкurilishnazorat" inspekstiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvi dalolatnomalari bilan tasdiкlanadi.

31. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

32. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdiғisiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu xaкda xabardor кilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor кilingan bo'lsa, u xolda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiк berkitiladigan ishlarning istalgan кismini o'z xisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir кilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiкishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning кurilish (ta'mirlash) sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

33. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniкlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va кurilish (ta'mirlash) кiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda кayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan xollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oкibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

34. Pudratchi кurilish (ta'mirlash) maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saкlaydi, кurilish (ta'mirlash) davrida maydondan кurilish (ta'mirlash) axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiкarib tashlaydi.

35. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning кabul кilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaкtida etkazib berilmasligi bilan borliк to'xtab кolishlar, кurilish texnikasining ishdan chiкishi to'ғrisidagi ma'lumotlar, shuningdek кurilish (ta'mirlash)ni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir кilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining кaydlaridan кoniкmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon кiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## IX. IShLARNI КO'RIКLASh

36. Pudratchi ishlar boshlanishidan кurilish (ta'mirlash) tugallangungacha va кurilishi (ta'miri) tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan кabul кilib olingunga кadar chetlari to'silgan кurilish (ta'mirlash) maydoni xududida materiallar, asbob-uskunalar, кurilish texnikasi va boshкa mol-mulk zarur darajada кo'riкlanishini ta'minlaydi.

## X. ENGIB BO'LMAYDIGAN KUCh (FORS-MAJOR) XOLATLARI

Scanned with CamScanner

**37.** Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar қisman yoki to'liқ bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshқa engib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiқsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday қisman yoki to'liқ bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal қilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaқtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

**38.** Agar engib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oқibatlari bir oydan ko'p vaқtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservastiya қilish uchun қanday choralar ko'rilishini muxokama қiladilar.

**39.** Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor қilinishini talab қilishga xaқlidir.

## XI. ҚURILIShI (TA'MIRI) TUGALLANGAN OB'EKTNI ҚABUL ҚILIB OLISh

**40.** Қurilishi (ta'miri) tugallangan ob'ektni қabul қilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiқ mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek қurilishi (ta'miri) tugallangan ob'ektlarni foydalanishga қabul қilib olishning belgilangan қoidalariga binoan amalga oshiriladi.

**41.** Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'ғrisida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 kun mobaynida қabul қilib olinadi.

**42.** Pudratchi қurilishi (ta'miri) tugallangan ob'ektni қabul қilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiқ Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro xujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu xujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liқ mos kelishini yozma ravishda tasdiқlashi kerak.

**43.** Қabul қilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

## XII. KAFOLATLAR

**44.** Pudratchi:

barcha ishlar to'liқ xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyixa xujjatlariga xamda қurilish me'yorlari, қoidalari va texnik shartlariga muvofiқ barcha ishlarni bajarish sifatini;

o'zi tomonidan қurilish (ta'mirlash) uchun қo'llaniladigan қurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstrukstiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikastiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiқligini;

ishlarni қabul қilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniқlangan kamchiliklar va nuқsonlarni o'z vaқtida bartaraf қilishni;

ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish қoidalariga muvofiқligini kafolatlaydi.

**45.** Ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar қurilishi (ta'miri) tugallangan ob'ektni қabul қilib olish to'ғrisidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 3 oy etib belgilanadi.

**46.** Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniқlanib, ular bartaraf etilgunga қadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuқsonlar aniқlansa, u xolda kafolat muddati nuқsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuқsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z xisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuқsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida қayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuқsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab қolish xuқuқiga ega.

**47.** Pudratchi nuқsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taқdirda, ularni tekshirib chiқish "Davarxitektқurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat қilishini istisno etmaydi.

## XIII. ShARTNOMANI BEKOR ҚILISh

**48.** Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin қurilish (ta'mirlash)ning boshlanishi Buyurtmachiga boғliқ bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaқtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiқ muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari қurilish me'yorlari va қoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

қonun xujjatlariga muvofiқ boshқa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor қilinishini talab қilish xuқuқiga ega.

**49.** Pudratchi:

Scanned with CamScanner

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bogʻliқ boʻlmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiқ muddatga to'xtatib қo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

қonun xujjatlariga muvofiқ boshқa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor қilinishini talab қilish xuқuқiga ega.

**50.** Shartnoma bekor қilinganda Buyurtmachi va Pudratchining қo'shma қaroriga ko'ra tugallanmagan қurilish (ta'mirlash) bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar қiymatini Pudratchiga to'laydi.

**51.** Mazkur shartnomani bekor қilishga қaror қilgan tomon mazkur bo'lim қoidasiga muvofiқ ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

**52.** Shartnoma bekor қilingan taқdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

**53.** Shartnomaning bir tomonlama bekor қilinishiga yo'l қo'yilmaydi, қonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

## XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

**54.** Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taқdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga etkazilgan zararlarni қoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuқarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuқuқiy bazasi to'gʻrisida"gi O'zbekiston Respublikasi Қonunida, boshқa қonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshқacha javobgarlikka tortiladi.

**55.** Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya қilmaganligi, o'z vaқtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshқa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan қismining 0,4 foizi miқdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar қiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni қoplashdan ozod қilmaydi.

**56.** Pudratchi ob'ektni o'z vaқtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan қismining 0,5 foizi miқdorida penya to'laydi, biroқ bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy қiymatining 50foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni қoplashdan ozod қilmaydi.

**57.** Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashқari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshқa tomon tarafidan қilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'қotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan қoplanmagan zararlarni қoplaydi.

**58.** Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshқacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod қilmaydi.

## XV. NIZOLARNI XAL ETISh TARTIBI

**59.** Shartnomani bajarishda va bekor қilishda shuningdek etkazilgan zararlarni қoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar xal etolmasa ular қonun xujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiқiladi.

## XVI. ALOXIDA ShARTLAR

**60.** Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va ogʻzaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'қotadi.

**61.** Pudratchi қurilish (ta'mirlash) ob'ektiga yoki uning aloxida қismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashқari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuқuқiga ega bo'lmaydi.

**62.** Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va қo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaқiқiy xisoblanadi.

**63.** Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiқmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar қanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga қo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiқlashi kerak.

**64.** Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin қurilish (ta'mirlash) maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni қoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi қurilish (ta'mirlash) maydonini ozod қilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaқ to'lashni kechiktirishga xaқlidir.

Scanned with CamScanner

-sonli shartnomaga
ILOVA

## Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni (davlat organi yoki tashkilotning nomi) xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiynafolish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

Pora berishni taklif qilish yoki va'da berish; tovlamachilik qilish; pora sifatida pul to'lash; bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon (davlat organi yoki takshlotining nomi) xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni;
Telegram-kanali ("@xxxxxxxxxx");
(davlat organi yoki takshlotining nomi) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektro npochta.

**TOMONLAR:**

| Bajaruvchi: | (davlat organi yoki takshlotining lavozimi) |
|---|---|
| "Usta Aliqul yo'l qurilish " МЧЖ | Oqqo'rg'on t. obodonlashtirish boshqarma |
| G.Xudaykulova | X.Jumanazarov |

| | | |
|---|---|---|
| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | XAYRULLA JUMANAZAROV URINBEKOVICH |
| | Imzolangan sana | 14.12.2022 09:37 |
| | Hujjat kodi | **MO3602872630** |
| | Hulosa kodi | **OZ5574085760** |

Scanned with CamScanner

65.Maskur shartnomada nazarda tutilgan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari normalari qo‘llaniladi.
66.Maskur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan 2 (ikki) nusxada tuziladi. SHartnoma G‘aznachilik bo‘limlarida ro‘yxatga olinganidan so‘ng yuridik kuchga ega bo‘ladi va 31 dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

**XVII. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI**

Bajaruvchi:
USTA ALIQUL YO’L QURILISH MCHJ
Toshkent v.Bo‘ka tumani Amur Temur ko‘cha
____________________________________
R/s: 20208000605270707001
Bank rekvizitlari: Sanoatqurilish bank Olmalik fil
MFO _____00440_
INN: _____307674304
OKED: ______________________

**Buyurtmachi:**
________________G.Xudaykulova

Buyurtmachi:
Okkurgon tuman Obodonlashtirish boshkarmasi
_Usta Normat MFY Ibn Sino kucha 10 uy
R/s __100022860272067045204110005
Okkurgon tuman Gaznachilik bulinmasi
X/R:23402000300100001010
INN: 201122919
Bank rekvizitlari: Toshkent shaxar Markaziy bank XKKM
MFO ___00014______________
INN: _207152007_______
OKED: ___________________________

**Buyurtmachi:** ______________
Jumanazarov X.U.

Scanned with CamScanner

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

OZ5574085760

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Yo‘l qurilishi**

3. Loyihа ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Oqqo‘rg‘on tumani obodonlashtirish boshkarmasi tomonidan 13.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Oqqurg‘on tumani yuridik markaz markaz rahbari:**

**A.O.BOBOYOROV**

13.12.2022

Scanned with CamScanner

# Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 200640 на приобретение Жорий таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 08.12.2022

Время рассмотрения 08.12.2022 00:45

Закупочная комиссия Оккургон тумани Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | ERGASHEVA DILRABO ZULXAYDAROVNA | Диспечер | Оккургон Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Секретарь комиссии** | MUSABEKOVA FOTIMA MALIKOVNA | Texnika xafvsizligi mutaxasisi | Obodonlashtirish boshqarma |
| **Член комиссии** | XUDOYQULOV XAMZA XUDOYBERDIYEVICH | OBB boshlig'i | Obodonlashtirish boshqarma |
| **Член комиссии** | ABDUAZIZOV OBID NAIMOVICH | Infratuzikma bu'limi [xodimi | obodonlashtirish boshqarma |
| **Член комиссии** | TURSUNOV ALISHER AMANOVICH | Infratuzilmalfy foydalanish ,u'limi ,oshlig'i | Obodonlashtirish boshqarma |
| **Председатель комиссии** | KARAYEV SAIDJALOL VAXOBOVICH | OB bosh injener | obodonlashtirish boshqarma |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 08.12.2022 года № лота 200640.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 20.00 / Весовой коэф. ценовой части: 80.00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог** |
|---|---|
| Подробное описание | Ёшлик МФЙ К Бегзод кучани таъмирлаш |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 71 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 71 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Тошкент вилояти Оққўрғон тумани Ёшлик МФЙ К.Бегзод кўчасини жорий таъмирлаш

Тип: Текстовое значение

Описание: Ижрочи ташкилоти хакикатда низом ёки лицензия асосида иш юритиши лозим

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **USTA ALIQUL YO'L** | 25 | Umumiy | 20 | Экспертная | | |

Scanned with CamScanner

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| QURILISH MCHJ | | malumotlar | | | | |
| ELDOR-EL-SAVDO ДХ | 25 | 1 | 15 | Экспертная | | |

Критерий №2 Тошкент вилояти Оққўрғон тумани Ёшлик МФЙ К.Бегзод кўчасини жорий таъмирлаш

Тип: Текстовое значение

Описание: Ижрочи ташкилотнинг банкда махсус хисоб ракамига эга бўлиши ва маълум миқдорда айланма маблаги бўлиши керак

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| USTA ALIQUL YO'L QURILISH MCHJ | 25 | Хужатлар | 20 | Экспертная | | |
| ELDOR-EL-SAVDO ДХ | 25 | 3 | 15 | Экспертная | | |

Критерий №3 Тошкент вилояти Оққўрғон тумани Ёшлик МФЙ К.Бегзод кўчасини жорий таъмирлаш

Тип: Текстовое значение

Описание: Ижрочи ташкилотни солик тўловларидан қарздорлиги ёки картотекаси бўлмаслиги керак

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| USTA ALIQUL YO'L QURILISH MCHJ | 25 | Хужатлар | 20 | Экспертная | | |
| ELDOR-EL-SAVDO ДХ | 25 | 2 | 15 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| USTA ALIQUL YO'L QURILISH MCHJ | 71 000 000.00 | 70 000 000.00 UZS | 70 000 000.00 | 00.00 | 70 000 000.00 | 01.12.2022 16:03:32 | 80 |
| ELDOR-EL-SAVDO ДХ | 71 000 000.00 | 70 950 000.00 UZS | 70 950 000.00 | 00.00 | 70 950 000.00 | 06.12.2022 09:03:35 | 78.92882 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| USTA ALIQUL YO'L QURILISH MCHJ | 16 | 80 | 96 |
| ELDOR-EL-SAVDO ДХ | 12 | 78.92882 | 90.92882 |

Scanned with CamScanner

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 200640 от 08.12.2022 года на приобретение Жорий таъмирлаш определила победителем:

USTA ALIQUL YO'L QURILISH MCHJ
307674304

и резервный исполнитель: ELDOR-EL-SAVDO ДХ (302697999)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | KARAYEV SAIDJALOL VAXOBOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | XUDOYQULOV XAMZA XUDOYBERDIYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ABDUAZIZOV OBID NAIMOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ERGASHEVA DILRABO ZULXAYDAROVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | TURSUNOV ALISHER AMANOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

Scanned with CamScanner

**200640 лот юзасидан шаклланган дастлабки баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана: 12.12.2022 16:16

Комиссия раиси: KARAYEV SAIDJALOL VAXOBOVICH

Scanned with CamScanner

3474977

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"USTA ALIQUL YO'L QURILISH" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"USTA ALIQUL YO'L QURILISH" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

26.08.2020 885044 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 307674304

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Toshkent viloyati, Oqqo`rg`on tumani, Хамзаобод МФЙ, Тинчлик кучаси, 30-уй,

Guvohnoma: Toshkent viloyati, Oqqo`rg`on tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

Scanned with CamScanner